

# O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

## II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

UDK 631.52:635.64

### SHTAMBSIMON POMIDOR NAV VA TIZMALARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI HAMDA MUHIM XO‘JALIK BELGILARI

**Nadjiyev Jo‘raxon Norsaydovich**

TDMAU, katta o‘qituvchisi q.x.f.d

**Dusiyev Baxrom Rajabovich**

TDMAU 3-bosqich tayach doktoranti

E-mail: dusiyevbaxrom@gmail.com

**Annotatsiya.** 2024-2025 yiddarda Termiz davlat muxandislik va agrotexnologiyalari universitetida Rossiya seleksiyasiga mansub 11 ta, Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti (SPE va KITI) Surxondaryo ilmiy-tajriba stansiyasi seleksiyasiga mansub 21 ta nav namunalari morfobiologik, qimmatli xo‘jalik belgilari bo‘yicha o‘rganildi. Andoza nav Surxon 142.

**Annotation.** In 2024-2025, Termez State University of Engineering and Agrotechnology conducted a study of 11 varieties of Russian breeding and 21 varieties of the Surkhandarya Scientific Experimental Station of the Research Institute of Vegetable and Melon Crops and Potato Growing (RIV and MCPG) according to morphological and economically valuable characteristics. The tandard grade is Surkhan 142.

**Аннотация.** В 2024-2025 годах в Термезском государственном инженерно-агротехнологическом университете проведено изучение морфобиологических и хозяйственно-ценных признаков 11 сортов российской селекции и 21 сорта Сурхандарьинской научно-опытной станции НИИ овощеводства, бахчеводства и картофелеводства (НИОКБ и КИТИ). стандартный – Сурхан 142.

**Kalit so‘zlar.** Tovarbor hosil, determinant, o‘simlik bo‘yi, meva vazni, meva indeksi, umumiy hosildorlik, shtambsimon, meva shakli, nav, tizma, nav namunalari,

**Keywords.** Commercial yield, determinacy, plant height, fruit weight, fruit index, total yield, standard, round, variety, line, collection.

# O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

## II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

**Ключевые слова.** Товарная урожайность, детерминантность, высота растения, масса плода, индекс плода, общая урожайность, форма стебля, форма плода, сорт, гребень, образцы сортов.

**Kirish.** Dunyo miqyosida eng ko‘p yetishtiriladigan va aholi sevib iste‘mol qiladigan sabzavot ekinlaridan biri hisoblanadi. . «FAOSTAT» bergan ma’lumotlarga ko‘ra «2023 yilda eng ko‘p pomidor yetishtiruvchi mamlakatlar Xitoy (70,1 mln t), Hindiston (29.4, mln t), Turkiya (13,3 mln t), AQSh (12,4 mln t), Misr (6,12 mln t), Italiya (6,02 mln t), Meksika (4,39 mln t), Braziliya (4,17 mln t) hisoblanadi va jahon bo‘yicha 192.3 mln t pomidor yetishtirilgan».<sup>4</sup> O‘zbekistonda ham pomidor yetakchi sabzavot ekinidir. 2023 yilda respublikamizda 67,38 ming gektar maydonda pomidor yetishtirilgan va yalpi hosil 2.12 mln tonnani, o‘rtacha hosildorlik esa 33,88 t/ga ni tashkil etgan. “O‘zbekistondagi barcha turdagi fermer xo‘jaliklari 2024-yilda 2,3 million tonna pomidor yetishtirilgan. Mahsulot yetishtirish hajmi quyidagicha taqsimlandi: 451,1 ming tonnasi fermer xo‘jaliklari, 1,7 million tonnasi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, 125,9 ming tonnasi qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar tomonidan yig‘ib olindi. Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, pomidor yetishtirishning asosiy qismi kichik va oilaviy fermer xo‘jaliklariga to‘g‘ri keladi va ular ichki bozorni ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi”<sup>5</sup>. Jumladan, mamlakatimizda ham mavjud resurs va imkoniyatlardan oqilona foydalanib, aholini qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan yetarli darajada ta‘minlash, hosildorlik va manfaatdorlikni yanada oshirish, sohaga ilm-fan yutuqlari hamda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish dolzarb masala hisoblanadi. Sabzavot ekinlari inson salomatligi, uning ish qobiliyatini yaxshilash hamda inson organizmi uchun zarur bo‘lgan biologik aktiv moddalar, vitaminlar, fermentlar, mineral tuzlar kabilarga g‘oyat boy beqiyos oziq-ovqat mahsulotlari hisoblanganligi sababli respublikamizda uni yetishtirishni ko‘paytirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada himoyalangan yer sabzavotchiligi qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlaridan bo‘lib, aholini yilning

---

1.FAOSTAT Statistics Database. [urworldindata.ourworldindata.org/grapher/tomato-production?globe](http://urworldindata.ourworldindata.org/grapher/tomato-production?globe)

2,<https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistan-produced-23-million-tons-of-tomatoes-in-2024-statistics-data/>

# O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

## II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

nomavsumiy davrida yangi vitaminlarga boy mahsulotlar bilan ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda sabzavot ekinlari orasida pomidor yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi.

**Tadqiqotning ob’ekti** sifatida Rossiya seleksiyasiga mansub 11 ta va Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti (SPE va KITI) Surxondaryo ilmiy-tajriba stansiyasi seleksiyasiga mansub 21 ta nav va liniyalari xizmat qildi.

### **Tadqiqot ushlublari.**

-Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. - М.: Агропромиздат, [2]

-Методические указания по изучению и поддержанию мировой коллекции овощных пасленовых культур томаты, перцы, баклажаны uslub va uslubiy ko‘rsatmalari asosida olib borildi. [3]

**Tajriba qaytariqsiz.** Hisob bo‘lmachasi maydoni 6 m<sup>2</sup>. Bo‘lmacha 2 qatorli. Bo‘lmachada o‘simliklar soni 20 ta. Ekish sxemasi 210:2x30sm. Urug‘lar 2-fevralda issitilmaydigan issiqxonaga sepildi, 25-martda plyonka ostiga o‘tqazildi.

O‘suv davrida quyidagi fenologik kuzatuvlar olib borildi: urug‘larni ekish, nihollarni unib chiqishi (10%, 75%), ko‘chatlarni dalaga o‘tkazish, o‘simliklarning gullashi (10%, 75%), mevalarning pishishi (10%, 75%). 10 aprelda plyonkalar olib tashlandi.

Mevalar yoppasiga pishib etilganda o‘simliklar quyidagi belgilari bo‘yicha tavsiflandi: asosiy poya uzunligi, sm; o‘simlik tipi, barglanganligi (kuchsiz, o‘rtacha, kuchli), o‘simlik balandligi: pakana (30 sm gacha), past bo‘yli (31-50 sm), o‘rta bo‘yli (50-90 sm), baland bo‘yli (91-150 sm), juda baland bo‘yli (150 dan yuqori), mevaning shakli, indeksi  $(H/D)=i$ , mevaning vazni, g, mevaning rangi, hosildorlik va uning sifati.

O‘rganilgan shtambsimon pomidor nav va tizmalarning rivojlanish fazalarining davomiyligi 1-jadvalda keltirildi. Akademik A.V.Alpatev [1; 302-b] ta’kidlaydiki, uning olib borgan tadqiqotlariga ko‘ra pomidor ekinlarida “unib chiqishi-gullash” va “gullash va mevalarning pishishi” kabi rivojlanish davrlari bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan holda nasldan –naslga beriladi.

# O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

## II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

Aniqlanishicha, unib chiqishdan gullashgacha va gullashdan pishishgacha bo‘lgan qisqa davri bilan o‘zaro farqlanuvchi ikkita o‘rtapishar nav chatishtirilganda ota-ona shakllariga nisbatan yanada tezpisharroq nav olish mumkin, negaki ushbu davrlar bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan holda irsiylanadi.

Alohida rivojlanish fazalari va butun vegetatsiya davrining davomiyligi haqidagi ma’lumotlar ertapishar nav va duragaylar seleksiyasida juda muhim hisoblanadi. Bu

№	Nav va tizmalar	Unib chiqishidan gullashigacha	Gullashidan pishishigacha	Amal davri kun
---	-----------------	-----------------------------------	------------------------------	-------------------

esa o‘z navbatida ushbu davrlar qisqa bo‘lgan navlarni chatishtirib juda ertapishar shakllarni

olish imkonini beradi [1].

Shu bois, rivojlanish fazalarining davomiyligi tezpisharlikka qaratilgan pomidor seleksiyasi uchun muhim axborot hisoblanadi.

Yuqoridagi berilgan 1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, aksariyat hollarda vegetatsiya davrining qisqarishi “gullash-pishish” davrining qisqarishi hisobiga yuzaga keladi.

**1-jadval**

# O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

## II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

1	Surxon, andoza	70	47	117
2	Do‘stlik	66	46	112
3	Taramata 1	71	47	118
4	Otradniy	61	36	97
5	Chelnok	62	35	97
6	Utenok	66	49	115
7	Sp-22/15	66	45	111
8	SP-36/17	68	45	112
9	Taramata SPN68/14	72	46	118
10	Taramata-348	72	46	118
11	Taramata-237	73	46	119
12	Taramata-242	73	47	120
13	Sug‘diyona	68	51	119
14	N5 Sug‘diona	67	52	118
15	MJ-31	69	48	117
16	SP43-1/17	70	48	118
17	L-31	69	49	118
18	N5MJ-31	71	47	118
19	SP32-2/16	70	47	117
20	SP-105-Marjona	70	52	122
21	Marjona	70	52	122
22	Argo	59	40	99
23	Perst	63	36	99
24	Revansh	61	38	99
25	Severyanka	65	42	107
26	Volgogradskiy 5/95	70	47	116
27	Sevara	64	48	111
28	Alpateva 905 <sup>a</sup>	64	45	108
29	Fonarik	65	48	113
30	Baxodir	66	55	121
31	Moskvich	61	40	101
32	SP 21/15	70	44	113

### **Pomidor nav va tizmalarida rivojlanish fazalarining davomiyligi 2024-2025**

Eng qisqa «unib chiqish-gullash» davriga Otradniy, Chelnok, Argo, Perst, Revanch, Severyanka, Alpateva 905<sup>a</sup>, Fonarik, Moskvich navlari ega bo‘ldi, ularda ushbu davrning davomiyligi 59-65 kunni tashkil etdi va andoza navdan 5-11 kun ilgari pishib yetildi. Andoza Surxon 142 navida bu ko‘rsatkich 70 kun davom etdi.

Eng qisqa «gullash-pishish» davriga Otradniy, Chelnok, Argo, Perst, Revanch, Severyanka, Moskvich navlari ega bo‘ldi, Ushbu namunalarda mazkur davr davomiyligi 35-42 kunni tashkil etdi va andoza navdan 5-12 kun ilgari pishib yetildi. Andoza navda bu davr 47 kun davom etdi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, tezpisharlik ortishi bilan xo‘jalik- qimmatli belgilar pasayadi, mevaning o‘lchami

# **O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

## **II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

kichrayadi, mevalarining sifati va hosildorlik pasayadi, o‘simliklar barg bilan sust qoplanadi.

Bu shundan dalolat beradiki, ushbu navlarni chiqarishda seleksionerlar tezpisharlik va xo‘jalik-qimmatli belgilar o‘rtasida mavjud bo‘ladigan salbiy korrelyatsiyani ma’lum darajada bartaraf etishga muvaffaq bo‘lishgan.[5]

Shtambsimon pomidor navlari asosan tik o‘sadi va oziqlanish maydonining katta bo‘lishini talab qilmay, ularni mexanizatsiya yordamida parvarishlash oson. Baland bo‘yli pomidor navlari ko‘pincha kechpishar bo‘ladi va meva shoxlarining siyrak-2-3 ta bargdan keyin joylanishi bilan farq qiladi. Shu sababdan baland bo‘yli navlarning hosil berish davri cho‘zilib ketadi. Past bo‘yli navlar 1-2 ta bargdan keyin, to‘pgulining guj joylashganligi, ertapisharligi va ommaviy meva tugishi, bir vaqtda pishishi bilan xarakterlidir. [6]

Novdalarning shoxlanish tarzi va bosh poyasi o‘shining qancha davom etishiga qarab determinant va yarim determinant o‘simlik tipi farq qildi. Determinant va yarim determinant nav va tizmalarga Surxon 142, Do‘stlik, Taramata 1, Utenok, Marjona, Taramata , Sug‘diyona, L-31 N5 Sug‘diyona, MJ-31, SP 43-1/17, L-31, N5 MJ-31, SP 32-2/16, SP105 Marjona, Marjona Perst Severyanka Sevara Alpateva 905<sup>a</sup> Bahodir, navlarida amal davrining uzunligi 105-122 kunni tashkil etdi. Bu navlar o‘rta va kechpishar navlar guruhiga kiradi.

Boshlang‘ich materialda o‘simlik bo‘yi meva vazni, shakli, rangi o‘simlik gabitusi, barglanishi kabi belgilar tavsifi ham katta ahamiyatga ega.

a) determinant navlar asosan 3-4 to‘pgul hosil qilgandan keyin bosh poyaning o‘shidan to‘xtab, yon poyalari mo‘tadil o‘sib, to‘pgul va meva bilan tugallanadi va pomidor tupi past bo‘yli bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Bularga Do‘stlik , Otradniy, Chelnok, SP-22/15, SP-36/17, MJ-31, SP 43-1/17, L-31, N5 MJ-31, SP 32-2/16, SP105 Marjona, Marjona, Perst, Severyanka, Sevara, Alpateva 905<sup>a</sup>,Moskvich, Sp 21/15 kabi o‘simlik bo‘yi 31 sm dan 48 sm gacha bo‘lgan navlar kiradi;

b) yarim determinant navlarga determinantlik, ya’ni poya o‘shisi chegaralanishining kuchsiz namoyon bo‘lishi xarakterlidir. Ushbu guruhga Surxon

# O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

## II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

142, Taramata 1, Utenok, Taramata SPN 68-1/14, Taramata 348, Taramata 237, Taramata 242, Sug‘diyona, N5 Sug‘diyona, Revansh, Volgogradskiy 5/95, Fonarik, Baxodir kabi o‘simlik bo‘yi 51-91 sm bo‘lgan navlar mansubdir.

### 2-jadval

#### Shtamsimon pomidor nav va tizmalarining morfobiologik tavsifi, 2024-2025 yil

№	Nav va tizmalr	O‘simlik		Meva			
		bo‘yi	tipi	vazni, g	bo‘yi, sm	eni, sm	indeksi
1	2	3	4	5	6	7	8
1	Surxon 142	87	shtamb	123	4,8	6,0	0,8
2	Do‘stlik	48	shtamb	85	4,8	5,6	0,9
3	Taramata-1	85	shtamb	140	5,7	6,3	0,9
4	Otradniy	37	shtamb	67	4,3	4,8	0,9
5	Chelnok	39	shtamb	62	6,1	3,8	1,6
6	Utenok	84	shtamb	86	5,2	5,9	0,9
7	SP-22/15	41	shtamb	115	5,6	6,2	0,9
8	SP-36/17	41	shtamb	110	5,5	6,1	0,9
9	Taramata SPN 68-1/14	89	shtamb	123	5,8	6,4	0,9
10	Taramata 348	87	shtamb	125	5,4	6,1	0,9
11	Taramata 237	87	shtamb	137	5,1	5,9	0,9
12	Taramata 242	91	shtamb	130	5,5	6,4	0,9
13	Sug‘diyona	54	shtamb	127	5,4	6,2	0,9
14	Sug‘diyona N5	51	shtamb	131	5,6	6,5	0,9
15	MJ-31	43	shtamb	110	5,4	6,1	0,9
16	SP 43-1/17	41	shtamb	121	5,5	6,1	0,9
17	L-31	41	shtamb	122	5,5	6,2	0,9
18	N5 MJ-31	38	shtamb	110	5,2	5,9	0,9
19	SP 32-2/16	36	shtamb	101	5,1	5,8	0,9
20	SP105 Marjona	37	shtamb	72	5,5	5,1	1,1
21	Marjona	38	shtamb	74	5,6	5,0	1,1
22	Argo	76	shtamb	72	4,6	5,4	0,9
23	Perst	40	shtamb	61	5,6	3,7	1,5
24	Revansh	55	shtamb	76	4,4	4,8	0,9
25	Severyanka	36	shtamb	67	4,4	4,8	0,9
26	Volgogradskiy 5/95	91	shtamb	114	4,9	6,3	0,8
27	Sevara	42	shtamb	81	4,9	5,6	0,9
28	Alpateva 905 a	31	shtamb	77	4,8	5,4	0,9
29	Fonarik	35	shtamb	111	5,4	6,5	0,8
30	Baxodir	91	shtamb	193	5,9	8,6	0,7

# O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

## II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

31	Moskvich	35	shtamb	85	4,4	5,6	0,8
32	SP 21/15	35	shtamb	106	5,1	6,1	0,8

Shunday qilib, bizda o‘simlik bo‘yining uzunligi turlicha bo‘lgan nav namunalari mavjud bo‘lib, ular shtambsimon navlar seleksiyasida qimmatli boshlang‘ich manba bo‘lib xizmat qiladi.

Nav va tizmalar mevasi o‘rtacha vazni o‘rganilganda quyidagi guruhlarga bo‘lindi:

a) mayda mevali (45 grammdan 70 gramgacha): Otradniy, Chelnok, Perst, Severyanka. Bu navlarda meva vazni 61-67 g ni tashkil qildi;

b) o‘rtacha mevali (71 grammdan 100 gramgacha):, Do‘stlik, Utenok, SP105 Marjona, Marjona, Argo, Revansh, Sevara, Alpateva 905<sup>a</sup>, Moskvich. Bu navlarda meva vazni 72-86 grammni tashkil qildi;

v) yirik mevali (100 gramdan ko‘p): Surxon 142, Taramata 1, SP-22/15, SP-36/17, Taramata SPN 68-1/14, Taramata 348, Taramata 237, Taramata 242 Sug‘diyona, N5 Sug‘diyona, MJ-31, SP 43-1/17, L-31, N5 MJ-31, SP 32-2/16, Volgogradskiy 5/95, Fonarik, SP 21/15. Bu nav va tizmalarda meva vazni 101-140 gramm atrofida bo‘ldi;

g) juda yirik mevali (193 g): Bahodir.

Shuni qayt etib o‘tish joizki, Chelnok, Perst, Taramata 1, SP-22/15, SP-36/17, Taramata SPN 68-1/14, Taramata 348, Taramata 237, Taramata 242 Sug‘diyona, N5 Sug‘diyona, MJ-31, SP 43-1/17, L-31, N5 MJ-31, SP 32-2/16, SP 21/15 mevalar juda zich va transportbop hamda ular ushbu juda belgi bo‘yicha seleksiya ishlarini olib borish uchun boshlang‘ich manba sifatida xizmat qilish mumkin. Chelnok va Perst navlarining mevasi noksimon va uzunchoq shaklga ega bo‘lib, meva indeksi ularda 1,5-1,6 ni tashkil etdi. Qolgan barcha o‘rganilgan navlarda mevalari yassi-yumaloq va yumaloq shaklga ega bo‘ldi. Meva indeksi 0,7-1,1 ni tashkil etdi.

# O'ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO'JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

## II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

Pushti rangli navlar seleksiyasida Sevara va Bahodir navlari boshlang'ich manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Qolgan nav va tizmalarda mevasi qizil va to'q-qizil rangda ekanligi aniqlandi.

**Xulosa.** Shunday qilib pomidor nav va tizmalarning rivojlanish fazalarining davomiyligini o'ganishdan olingan ma'lumotlarga ko'ra, unib chiqishidan gullashigacha va gullashidan pishishigacha bo'lgan davrning qisqaligi quyidagi: Otradniy, Chelnok, Argo, Perst, Revansh nav namunalari kuzatildi. Shunga muvoffiq ushbu namunalarda amal davrining eng qisqa (97-99 kun) bo'lganligi kuzatildi va bular ertapishar hisoblanadi. Bu navlar kelgusida pomidorning ertapisharlik seleksiyasida boshlang'ich material bo'lib xizmat qiladi;

Yirik mevali navlar yaratishda (100 gramdan ko'p): Surxon 142, Taramata 1, SP-22/15, SP-36/17, Taramata SPN 68-1/14, Taramata 348, Taramata 237, Taramata 242 Sug'diyona, N5 Sug'diyona, MJ-31, SP 43-1/17, L-31, N5 MJ-31, SP 32-2/16, Volgogradskiy 5/95 nav namunalari;

Mevalari zich, transportbop navlar seleksiyasi uchun: Taramata SPN 68-1/14, Taramata 348, Taramata 237, Taramata 242 Sug'diyona, N5 Sug'diyona, MJ-31, SP 43-1/17, L-31, N5 MJ-31, SP 32-2/16 bolang'ich manba bo'lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алпатьева А.В. Помидоры., “ Московский рабочий”., -1981, -302 с
2. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта – М.: “Агропромиздат”, 1985. – С. -350.
3. Методические указания по изучению и поддержанию мировой коллекции овощных пасленовых культур (томаты, перцы, баклажаны) Л.,1977. 23
4. Aramov. M.X, Nadjiyev J.N. Pomidor va baqlajonning transportbop, bo'rtma nematodalariga chidamli nav va F1 duragaylar seleksiyasi. Monografiya. Termiz. 2021yil. 122-124 bet

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

**II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

5. Nurmatov N.J. Ertapisharlikka va adaptiv qobiliyatga yo‘naltirilgan pomidor (*L.esculentum Mill.*) seleksiyasi va yetishtirish texnologiyasi. Q.x.f.d..... dissertatsiya. Toshkent, 2020. -16-20 b.

6. X.Ch.Bo‘riyev, I.T.Ergashev, D.S.Normurodov, M.Aramov, B.M.Eshonqulov “Sabzavot ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi”, Samarqand-2021 yil 245-255 betlar